

## O'ZBEK TILIDA TAFAKKUR FE'LLARINING MA'NO XUSUSIYATLARI

*Abidova Zilola Xabibullayevna*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek tilidagi tafakkur fe'llarning ma'no xususiyatlarini o'rganishga bagishlangan. O'zbek tilshunosligida bu fe'llar psixik holat fe'llari nisbatan keyinroq aqliy faoliyat fe'llari deb ataldi. Bu ikki atama ma'nosini umumlashtirib, tafakkur fe'llari deb atash mumkin. O'zbek va ingliz tilidagi tafakkur fe'llari semantik xususiyatlari, leksikografik talqini va o'zaro tarjimai masalalariga oydinlik kiritishda ingliz tilidagi mavjud tasnifga asoslanamiz. Ingliz tilida bo'lganidek, o'zbek tilida ham tafakkur fe'llarini olti ma'no turiga ajratiladi va tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** fe'l, tafakkur fe'llari, leksema, morfologik sath, tub fe'llar, yasama fe'llar, sinonimiya, antonimlik ma'no, semantik tahlil, chog'ishtirma tahli, komponent tahlil.

**Abstract.** This article is dedicated to the study of the meaning of the verbs of thinking in the Uzbek language. In Uzbek linguistics, these verbs were called mental activity verbs later than mental state verbs. The meaning of these two terms can be summarized and called verbs of thinking. In clarifying the semantic features, lexicographical interpretation and mutual translation of the verbs of thinking in Uzbek and English, we are based on the existing classification in English. As in English, in Uzbek, thinking verbs are divided into six types of meanings and analyzed.

**Key words:** verb, mental verbs, lexeme, morphological level, root verbs, phrasal verbs, synonymy, antonym meaning, semantic analysis, hybrid analysis, component analysis.

### KIRISH

O'zbek tilshunosligi dunyoning boshqa qator tilshunoslik maktablari qatori nutqiy birliklarning grammatik, fonetik xususiyatlaridan oldin ularning ma'nosini o'rganish masalasiga murojaat etgan, desak yanglishmaymiz. "Semantik tahlil natijalarini yaratilgan turli tarixiy leksikografik asarlar o'zida mujassam etgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" nomli mashhur leksikografik asari, Mahmud az-Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" (Adab ilmiga muqaddima) asari, Ichoqxon Ibratning "Lug'ati sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") asari o'zbek tilida so'z ma'nosi izohi, ma'noga grammatik ko'rsatkichlarning ta'siri va shu kabi til hodisalari haqida ilk tushunchalarni shakllantirdi"<sup>1</sup>. Bu manbalar ensiklopedik xususiyatga ega,

<sup>1</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002. – Б. 232.

ya'ni ularga asoslanib o'zbek tili leksikasining tarixiy rivojlanish bosqichlari, til mexanizmlarining takomillashuvi xususida salmoqli xulosalar qilish mumkin. Ammo leksikani tahlil qilish metodologiyasi zamonaviy o'zbek tilshunosligi davrida shakllandi. O'zbek tili leksikasini semantik nuqtayi nazardan o'rganishning nazariy asoslari yaqin tarixda ishlab chiqildi<sup>2</sup>. Semantik tahlil har qanday yirik lug'aviy ma'noni eng kichik qismlar, ya'ni semalarga ajratish imkonini beradi. Bunday segmentatsiya natijasida tildagi ayni ma'noga ega so'zlarni aniqlash va zid ma'noli leksemalarni farqlash mumkin. Amaliy jabhada semantik tahlilga bag'ishlangan tadqiqotlar til ta'limi sifatini oshirishga, yozma va og'zaki nutq me'yorlarini ishlab chiqishga, bir tildagi materialni boshqasiga mukammal ravishda tarjima qilish mexanizmlarini yaratishga shart-sharoit yaratadi. Shu maqsadlarni amalga oshirish maqsadida so'z ma'nosini o'rganishga oid turli semantik tahlil metodlari ishlab chiqilgan. Ilk ommalashgan metodlardan biri chog'ishtirma tahlil usuli hisoblanadi. Chog'ishtirma tahlil leksemalarni tarixiy kelib chiqishi, genealogik xususiyatlariga ko'ra qiyoslab o'rganish demakdir. Bunday analiz tovush va ma'no o'zgarishlarini ikki qardosh til doirasida o'rganadi. Ingliz va o'zbek tillari bir-biriga qardosh emas, turli qurilishga va geneologiyaga ega. Shu sababdan ikki tildagi tafakkur fe'llarini bunday tahlil metodi bilan o'rganib bo'lmaydi. Tahlil metodining yana bir turi distributiv metod bo'lib, uning asosiy mazmuni alohida olingan leksemalar nutqda qanday shakllarda, eng muhimi, qaysi vositalar bilan bir qatorda kelishini, bir leksemaning nutqda boshqa so'zlar bilan qanday munosabatlarga kirishishini aniqlashdan iborat. Distributiv-statistik so'z tahlili esa ushbu metodning mantiqiy davomi, yanada takomillashgan varianti hisoblanadi<sup>3</sup>. So'z ma'nosi murakkab, keng qamrovli, privativ xarakterga ega bo'lgan tushuncha ekanligi sabab uni tahlil qilish, o'rganish borasida ham yondashuvlar talaygina. Har bir yondashuv turli vaziyat va turkumlarga oid so'zlar tahliliga mos keladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbek tili leksikasi tarkibiy jihatdan juda boy, aksariyat o'zlashma leksemalar arab, fors tillaridan kirib kelgan. Shunga qaramasdan turkiy tillarning lug'at sathiga xos umumiy jihat o'zbek tilida ham mavjud, ya'ni ma'nosiga ko'ra monosemik bo'lgan fe'llar sof turkiy tillarda shakllangan, bular leksikamizning o'z qatlamidir. Ma'nosiga ko'ra murakkab polisemik fe'llar esa asosan o'zlashma qatlamni tashkil etadi<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002; Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд, 2006; Холманова З. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2007.

<sup>3</sup> Контрастивная лингвистика / Сост.: В.П.Нерознак, В.Г.Гак. – М.: [Прорепсс](http://www.prorecc.ru), 1989. – С. 310.

<sup>4</sup> Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008; Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992.

Zamonaviy o'zbek tilidagi tafakkur fe'llarining aksariyati o'zlashma leksemalardir. O'zbek tilshunosligida bu fe'llar psixik holat fe'llari nisbatan keyinroq aqliy faoliyat fe'llari deb ataldi. Bu ikki atama ma'nosini umumlashtirib, tafakkur fe'llari deb atash mumkin.

O'zbek tilshunosligida holat fe'llarining ma'no xususiyatlari umumiy nuqtayi nazardan qisqacha ta'riflangan bo'lsa ham, aynan aqliy faoliyat, tafakkur faoliyatini anglatuvchi leksemalarning ma'no xususiyatlari tahlil qilinmagan. Shunday ekan, o'zbek va ingliz tilidagi tafakkur fe'llari semantik xususiyatlari, leksikografik talqini va o'zaro tarjimasini masalalariga oydinlik kiritishda ingliz tilidagi mavjud tasnifga asoslanamiz. Ingliz tilida bo'lganidek, o'zbek tilida ham tafakkur fe'llarini olti ma'no turiga ajratish mumkin:

1. Tushunish faoliyati fe'llari;
2. Xotira faoliyati fe'llari;
3. Bilish faoliyati fe'llari;
4. Qaror qabul qilish faoliyati fe'llari;
5. Rejalashtirish faoliyati fe'llari;
6. Tasavvur faoliyati fe'llari.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni tahlil qilishda ushbu leksemalarni bir yirik ma'no atrofida yig'ib, so'ng shu yirik ma'noni kichik tarkibiy qismlarga ajratish samarali ahamiyatga ega. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, mavhum tushunchalar ma'nosi chegaralari ham abstrakt bo'ladi. "Mavhum tushunchalarning tilshunoslikdagi tadqiqi xususida so'z borar ekan, bu masalaning murakkabligiga ishora qilib qator tadqiqotlar, turli lingvistik yondashuvlar va metodlar yaratilganiga qaramasdan, tilning asosiy ishlash mexanizmlari hanuz to'liq tushunib yetilmagan, deyiladi. Masalan, til mexanizmlari abstrakt (mavhum) tushunchalarni shaklga (so'zga) kiritishda qanday ishlashi haligacha tushunilmagan. Bunday mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalar esa kundalik so'zlashuvimizda ishlatiladigan so'zlarning uchdan ikki qismini tashkil etadi"<sup>5</sup>. Tushunish va bilish faoliyati fe'llari orasidagi ma'no munosabati juda intensiv, ushbu ikki ma'no ba'zi hollarda bir-biriga qorishib, bir leksema negiziga singib ketgandek ko'rinadi. Lekin tushunish semasiga ega barcha holat fe'llarini faoliyat tugallanganligi ma'nosi birlashtirib turadi. Ya'ni *anglamoq, idrok etmoq, fahmlamoq* kabi fe'llar ong faoliyatining tushunishga doir jarayoni tugallanganidan, natijaviyligidan dalolat beradi. *Bilmoq* fe'lida esa jarayon boshlanib, ma'lum bir muddat davom etib, so'ng natijaga erishilgan degan ma'no

---

<sup>5</sup> Фёрс Дж.Р. Техника семантики // Новое в лингвистике. – М.: 1962. – вып. 2. – С. 84.

mavjud emas. Ushbu guruhdagi vositalar bilish faoliyatining o'zi natija ekanligini, bu natija o'rganish oqibatida hosil bo'lganini anglatadi. Shu sababdan tushunish faoliyati fe'llari bilish faoliyatidan birgina semasiga ko'ra farqlanadi deb xulosa chiqarish mumkin. Tushunish fe'llari jarayon so'ngiga yetganini anglatadi, bilish esa natijaning borligini ko'rsatib beradi, natijagacha bo'lgan jarayon semasi mavjud emas. Tushunish va bilish faoliyatini ifodalovchi leksemalarni tushunish oqibatida bilishning ortishiga qarab, daraja qatoriga qo'yish mumkin. Bunda *tushunish* fe'llari daraja qatori boshida joylashadi, *bilish* esa daraja qatori so'ngida turishi kerak. Masalan: *ilg'amoq – tushunmoq – bilmoq* daraja qatorida leksemalar tafakkur faoliyatining so'ng natijasi kattarib borishiga qarab joylashtirilgan. Garchi graduonimik qatorlar asosan sifat va ot so'z turkumida belgining ortib borishiga ko'ra tarkib topsa-da, fe'llar orasida ham ayni munosabatlarni ko'rishimiz mumkin. Faqat tafakkur faoliyati fe'llari belgining ortib borishiga qarab emas, asosan holatning intensivligi, tugallanganligi va mutlaqligi kabi darajaviy ma'nolarning oshib borishiga qarab tartibga solinadi. O'zbek tilida *tushunish* va *bilish* ma'nolarining ziddi ham mavjud, ko'pincha zid ma'nolar alohida leksema vositasida emas, ayni shu faoliyatni anglatuvchi fe'llarning bo'lishsiz shaklida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilidagi xotira faoliyati fe'llarini ma'nosiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin. Birinchi turkum fe'llar xotirlash faoliyatining qisqa muddat davom etganini anglatadi: *eslamog*. Ikkinchi guruh esa bu jarayonning uzoq muddat davom etganini, muntazamligi yoki takroriylikini anglatadi: *xotirlamoq, yod etmoq*. Xotira faoliyatini anglatuvchi birliklar sirasida *xotiradan ko'tarilganlik, eslamaslik* zid ma'nosi ham mavjud. *Yoddan chiqarmoq, unutmog, xayoldan ko'tarilmog* kabi so'z va birikmalar shu ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu o'rinda tafakkur faoliyati ma'nosi misolida ingliz va o'zbek tilidagi lug'at sathi farqini ilg'ash mumkin. Ingliz tilida turli tafakkur faoliyatlarini anglatuvchi ma'nolar sof fe'llar yordamida, ba'zi o'rinlarda predlogli fe'llar (frazali fe'llar) yordamida ifodalanadi. Biroq o'zbek tilida aqliy faoliyatni anglatuvchi ko'plab vositalar frazemalardan iborat. Ayni shu narsani xotira faoliyatini ifodalovchi vositalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: *xayoldan ko'tarilmog, xayolida gavdalanmog, ko'z o'ngiga kelmog, ko'z o'ngidan o'tmog, ko'z o'ngida qolib ketmog, xotirada muhrlanmog* kabi iboralar xotira faoliyatini frazemalar orqali ifodanishiga dalil bo'la oladi.

Qaror qabul qilish faoliyati fe'llariga *hukm qilmog, qaror qilmog, bir to'xtamga kelmog, jahd qilmog, ahd qilmog, ikkilanmog, shubhalanmog, o'ylanmog* kabi birliklar misol bo'la oladi. Ushbu guruh vositalarini ma'nosiga ko'ra qaror qabul qilish va qilmaslik kabi zidlov turlariga ajratish mumkin. Qaror qabul qilishni ifodalovchi barcha birliklar kishining uzoq yoki qisqa muddat davomida o'ylab, so'ng bir natijaga kelganini anglatadi – bu fe'llar jarayon tugallanganligi ma'nosini ifodalaydi. *Qaror*

*qabul qila olmaslik* ma'nosidagi leksemalar esa, aksincha, tafakkur faoliyati hanuz o'z nihoyasiga yetmaganini anglatadi.

Rejalashtirish faoliyatini anglatuvchi birliklar ham iboraviy xarakterga ega. Masalan, *rejalashtirmoq, ko'zda tutmoq, nazarda tutmoq, maqsad qilmoq, hozirlanmoq, taraddudlanmoq, miyada pishitib qo'yimoq, oldindan ko'ra bilmoq, taxmin qilmoq, loyihalashtirmoq* kabi leksik birliklar va birikmalar reja qilish faoliyatini anglatadi. Bu birliklarni umumlashtirib turuvchi ma'nolar ikkita – birinchisi, asosiy lug'aviy ma'no “rejalashtirish” bo'lsa, ikkinchisi, yashirin konnotativ sema “davom etish”, “kelajakda amalga oshish” ma'nolari hisoblanadi. O'zbek tilidagi tafakkur faoliyati fe'llarining har bir ma'no turi alohida tahlil qilinganda ushbu vositalar tor ma'noli monosemik, ba'zi hollarda esa keng ma'noli ekanligi asoslandi. O'zbek tilidagi vositalar o'z guruhida nafaqat asosiy ma'nosiga ko'ra, balki qo'shimcha ifodaviy semasiga ko'ra ham birlashar ekan. Ko'pma'nolilik, ma'no qavatlanishi aksariyat fe'llarda kuzatiladi. Rejalashtirish fe'llari misolida *loyihalashtirmoq* so'zi *reja, loyiha, oldindan ko'ra bilish, natijaga ko'z tikish, tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirish* kabi kichik semalardan tashkil topadi, bu so'z misolida birgina *rejalashtirish* ma'nosi ustiga yana bir necha semalar yuklanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Tafakkur faoliyati fe'llari orasida so'nggi ma'no turi tasavvur fe'llari bo'lib, ularga *tasavvur qilmoq, faraz qilmoq, orzu qilmoq, xayol qilmoq* kabi birikmalar kiradi. Bu ma'nodagi birliklar tub fe'l emas, ular yasama birikmalardir. Ingliz tilida esa shu ma'noni ifodalovchi birikmalar bilan bir qatorda ko'plab tub fe'llar mavjud. Boshqa tomondan tasavvur faoliyatini anglatuvchi fe'llar boshqa ma'nolarga, xususan, *rejalashtirish* va *bilish* ma'no turlariga qarama-qarshidir. Mohiyatan *bilish* va *rejalashtirish* mazmunida aniqlik, yaqqollik mavjud. *Tasavvur* yoki *faraz* ma'nosini anglatuvchi har qanday leksema esa o'z-o'zidan noaniqlik va majhullikni anglatadi. Demak, ular bo'lsa-da, bir-biriga nisbatan zid ma'noli munosabatga kirishadi.

“Leksik birliklar orasidagi semik munosabatlarga assotsiativ aloqalar ham kiradi. Xuddi ma'nodoshlik, yoki zid ma'nolilik munosabatlari kabi assotsiativ ma'no munosabatlari ham nutq jarayonidan tashqarida bo'ladi. Bu munosabat til birliklarining uyqash (o'xshash) talaffuzi, grammatik ko'rsatkichlaridagi o'xshashliklar va eng asosiysi mazmuniy yaqinlikka asoslanadi. Bir ma'no atrofida birlashgan mavhum tushunchalar ichki semik farqlariga ko'ra ajralib ketgani kabi umumiy gipersema tufayli o'zaro assotsiativ munosabatlarga kirishadi”<sup>6</sup>. Tafakkur faoliyatini anglatuvchi fe'llarning deyarli barchasi assotsiativ munosabatlarga kirisha oladi. Assotsiativ ma'no munosabatlari bir kichik ma'no turi doirasida ham, turli ma'no guruhlari orasida ham

<sup>6</sup> Курилович Е. Заметки о значении слова – очерки по лингвистике. – М.: Прогресс, 1962. – С. 21.

kuzatiladi. Misol uchun, rejalashtirish fe'llari qaror qabul qilish fe'llari bilan assotsiativ munosabatlarga kirishadi, tushunish fe'llari bilish fe'llari bilan aloqaga kirishadi, bu bog'lamada assotsiativ ma'no zanjiri xotirlash fe'llari bilan nihoya topadi.

Qiyosiy nuqtayi nazardan ingliz va o'zbek tillaridagi tafakkur fe'llari tadqiqi qator umumiy jihatlarni aniqlashga xizmat qildi. Masalan, tafakkur faoliyati fe'llari ikki tilda aynan bir shaklda kichik ma'no guruhlariga ajratiladi. Ikki tilda ma'nolar soni ham, ma'nolar nomlanishi ham bir xil. Xotirlash va tushunish, bilish ma'no guruhlari ichidagi so'zlar o'z guruhi doirasida sinonimlik, antonimlik aloqalariga ega. Tasavvur faoliyati, tushunish va bilish faoliyatini anglatuvchi so'zlar umumlashganda daraja qatori hosil bo'ladi. Har ikki tilda daraja qatorining nihoyalovchi nuqtasi bilish faoliyatini anglatuvchi fe'llar hisoblanadi. Tafakkur faoliyati fe'llari ingliz va o'zbek tillarida bir-biridan bir necha qirralari bilan farqlanadi ham. Masalan, ingliz tilidagi tafakkur fe'llari qo'llanish o'rniga ko'ra rasmiy so'zlashuv va norasmiy so'zlashuv uslubiga mos keladi deb ajratiladi.

### **XULOSA**

Yuqorida o'zbek tili leksikasida tafakkur faoliyati ma'nosiga ega fe'l va fe'lli birikmalarning ma'no tarkibi va munosabatlari ko'zdan kechirildi. Tafakkur fe'llarining aksariyati polisemantik xarakterga egaligi, ma'noning ko'pligi bir lug'aviy semaning kengligi bilan asoslanishi, ya'ni birliklar turli alohida ma'nolarga ega bo'lmasa, bir monosema qator kichik ma'nolardan tashkil topishi aniqlandi. Tafakkur faoliyati fe'llari ichida turli guruhlariga oid so'zlar bir-biri bilan zid ma'nolilik munosabatiga kirishadi. Bir guruh ichidagi mustaqil so'zlar esa asosan bir-biriga ma'nodosh, variantdosh bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002; Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарқанд, 2006; Холманова З. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2007.
2. Контрастивная лингвистика / Сост.: В.П.Нерознак, В.Г.Гак. – М.: [Прогресс](#), 1989. – С. 310.
3. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2008; Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992.
4. Rishatovna, Babaeva Komila, et al. "Modern foreign popular music as a means of teaching an english language to students of a non-inguistic profile." *International journal of psychosocial rehabilitation* 24.1 (2020): 1901-1905.
5. Abidova, Zilola Khabibullayevna. "Translation Problems of Verbs of Thought in Different System Languages." *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 2.2 (2023): 1-5.
6. Abidova Zilola Xabibullaevna. Ingliz tilida f'el va f'el kategoriyalari tadqiqi

7. Til o'qitish: yangi yondoshuv va innovatsiyalar. Toshkent sharqshunoslik Universiteti: 2022/5/10 pp.92-95
8. Абдуллаева, М. Р. Инглиз–ўзбек бадий таржималарида муқобил вариантни шаклланиш ва ривожланиш босқичлари.
9. Abidova Zilola Xabibullayevna. "Ingliz va o'zbek tillaridagi tafakkur fe'llarining tahlili." *Scientific progress* 3.2 (2022): 736-739.
10. Абдуллаева, М. (2022). Инглиз–ўзбек бадий таржималарида муқобил вариантни шаклланиш ва ривожланиш босқичлари. *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы*, (1), 78-81.
11. Zilola Xabibullayevna Abidova. "Tarjimalarda tafakkur fe'llarini semantik darajalanish usullari." "Topical Challenges in teaching Foreign languages" 186-192.
12. Abidova Zilola Khabibullayevna. "Analysis of Tipological Classification of Languages." "Barqaror rivojlanish kontekstida xorijiy tillarni o'qitish: ilog'or tajribalar, muammolar va imkonoyatlar" (2): 152-157.